

ISSN:3060-4567 Modern education and development
“O’TKIR HOSHIMOVNING HAYOTIY,IJODIY YO’LI VA
“ DUNYONING ISHLARI “ ASARINING BADIY TAHLILI

*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2 bosqich talabasi*

Karimova Zarina Anvar qizi

*O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti*

Usarova Laylo Ibragimovna

Annotatsiya: *Ushbu maqola buyuk jamoat arbobi sanalgan O‘tkir Hoshimovning hayoti va sermahsul ijodidan “ Dunyoning ishlari “ qissasining o‘ziga xos ta’sirchan badiiy xususiyatlarini namoyon etadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, qissa, reallik, ma’noviy va mazmuniy tahlil, botiniy yorituv, ona, paypoq, qabr.*

O‘zbek adabiyoti tarixining yorqin namoyondasi bo‘lgan O‘tkir Hoshimov takrorlanmas inson, adib, jamoat arbobi, muharrir, yozuvchi va bebaho ijodkor sifatida o‘chmas iz qoldirganligi bilan ajralib turadi. Adibning bolaligi qiyinchiliklarga boy tarzda o‘tgan bo‘lsada, ammo uning ijodga bo‘lgan qiziqishi otilib turgan buloq singari kuchli edi. Ijodini o‘rinli ravishda boshlaganligini , Abdulla Qahhordek atoqli adib tomonidan maqtovga sazavor bo‘lganligidan bilish mumkin. Adibning otasi Ataula Hoshimov haqparast, hiyla tajang, kamgap va o‘ta qat‘iyatli kishi bo‘lgan. Onasi Hakima aya soda, kamtarin, judayam samimiy, mehnatkash, mehribon ayol bo‘lgan deya ota-onasi haqida qisqa bo‘lsada ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek yozuvchining ikki qimmatli asarlari ya’ni qizi Yulduz va o‘g‘li Farrux haqida ham qisqacha bo‘lsada yoritilib o‘tilgan. “ O‘tkir Hoshimov farzandlariga mehribon ota bo‘lish bilan bir paytda, talabchan ham edi, biroq ularga ovozlari hech vaqt baland ko‘targanlarini, urushganlarini eshitmaganman . Bolalari otasining ko‘ziga qarab nima

demoqchiligini tushunishgan . U shundayin chiroyli shug'ullangan farzandlari tarbiyasi bilan“ (1: 43) deb uning rafiqasi fikr bildirgan.

O'tkir Hoshimov ijodini ocherklar va she'rlar yozishdan boshlaydi. Keyinchalik ularni kengaytirgan holatda birin-ketin qissa, hikoya va romanlarini xalqqa taqdim etadi. Yozuvchining ko'plab asarlari ekran yuzini ko'radi, ular asosida filmlar yaratiladi. Jumladan “ Bahor qaytmaydi “ qissasi mashhur bo'lib ketganligi barchaga ayon hisoblanadi. Kinossenariylarida “ Xazon bo'lgan bahor “ , “ Inson sadoqati “ , “ To'ylar muborak “ , “ Qatag'on ” drama, komediyalari o'rin olganligini ko'rishimiz mumkin. O'tkir Hoshimov asarlari iztiroblar asosida quriladi. Negaki, iztirob , azob, uqibatlar insonning ma'naviy dunyosini ochish uchun vosita hisoblanadi.

Adibning hayoti va ijodida muhim kasb etgan asari deya ta'riflangan “ Dunyoning ishlari“ qissasi mavjud. Odamlar olamini va hayotni teran kuzatuvchi shaxs sifatida falsafiy mushohadalar yuritgan yozuvchining ushbu asari dunyo mo'jizasi sanalmish onalarga bag'ishlanadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta'riflagan “ Dunyoning ishlari “ asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. [2: 347] Asar adibning qiyinchilik bilan o'tgan bolalik davri voqealari asosida yaratilgan. O'tkir Hoshimov o'z onasi tasvirida oddiy qishloq ayollari timsolini ochib bergan. Asarga jonli va hayotiy yondashuvligi, xalqchilligi, xolisona bilan bezak berib turuvchi unsurlar ushbu qissani ta'sirchanligini oshiradi. “Dunyoning ishlari” asarini o'qigan har bir kitobxonning yuragi junbushga kelishi hech kimga yot emas. Asardagi qahramon orqali har kim o'z onasini ko'radi. Turli xil katta kichik hikoyalar jamlanmasi bilan yuzaga kelgan asarda ona siymosi barcha boblarida yetakchi o'rinda turadi.

Asardagi “Gilam paypoq” hikoyasida ham ko'rishimiz mumkin, bolasi uchun har qanday narsaga tayyor, o'z sog'lig'idan ham kechgan ona obrazi ko'rsatilgan. “Sovuq yegani yo'q, qaytaga isib ketdi” deya o'ta kamtarinlik bilan onaning aytgan so'zlari orqali ham bolasi uchun jonkuyar onaning mehri ufurib turadi [3:24]. Yana shu kabi “Oq marmar, qora marma” nomli hikoyasi boshlanishadayoq kitobxon e'tiborini tortadigan o'ziga xos jimjimadorligi

borligini yaqqol sezsa bo'ladi. Turli gullar bilan o'ralgan qabr tasviri haqida gapirilar ekan, unga jilva beruvchi marmarlar ham nazardan chetda qolmagan holda tasvirlangan. Onasini ziyorat qilish uchun borgan farzand duolari, faryodlari, onasiga aytmoqchi bo'lgan dil izhorlari-yu barcha iztiroblari ushbu hikoyada ochib berilgan. Hech bir insonga onasining qabriga kelib dod-faryod qilishchalik qayg'uli ish bo'lmasa kerak. Ona bu shunchalar bebaho, tengsiz, go'zal mo'jizaki hech bir zod sizni u qadar sevolmaydi. Adib ham o'z onasini juda ham yaxshi ko'rgani uchun hamma hikoyada har xil obrazda uchrasa ham bu asarni onasi xotirasiga bag'ishlagan tarzda yozgan. O'tkir Hoshimovning ushbu asari orqali biz onalarimizga mehrimiz oshishi, hurmat va e'tiborimizni ko'proq berishimiz kerak singari fikrlarni o'zimizga singdira olgan bo'lsak, albatta, mos bo'lgan xulosani ola-olgan bo'lamiz deyishimiz mumkin. Onalarimizni asraylik, avaylaylik, hech kim ularni bizga bog'lab berishmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Hoshimov, O'tkir " O'tkir Hoshimov " .ziyouz.com.ziyouz.com.Qaraldi: 22-iyul 2024 Xabar.uz sayti

Karimov, N. (2008) .XX asr adabiyoti manzaralari . - T . O'zbekiston

Hoshimov, O'. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa. T: O'qituvchi
uz.m.wikipedia.org.

<https://kitoblar.dunyosi.uz/dunyoning-ishlari>.

<https://saviya.jz/ijod/nasr/gilam-paypoq/sirlar.uz>